

KONTRAST TASVIRDA RANG SIMVOLIKASI

Musurmonova Zohira,*Nukus davlat pedagogika instituti**o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti**E-mail: musurmonovazohira@gmail.com*

Annotasiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida kontrast tasvir muammosi A.Suyun ijodi misolida o'rganiladi. She'riyatda badiiy kontrastni yuzaga keltirgan ranglar va ramziy ma'nolar ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Shuningdek, daryo, tog', dunyo ramzlarining ma'no qirralari va psixologik asoslari yoritib beriladi

Kalit so'zlar: She'riyat, ramz, kontrast, ranglar poetikasi, oq, qora, daryo, tog', ziddiyat.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема контрастной образности в современной узбекской поэзии на примере произведения А.Суюн. Проводится научный и теоретический анализ использования цветов и их символического значения в создании художественного контраста в поэзии. Также раскрываются семантические аспекты и психологические основы символов реки, горы и мира.

Ключевые слова. Поэзия, символ, контраст, поэтика цветов, белый, черный, река, гора, конфликт.

Abstract. This article examines the problem of contrasting imagery in contemporary Uzbek poetry using A. Suyun's work as an example. It provides a scientific and theoretical analysis of the use of colors and their symbolic meaning in creating artistic contrast in poetry. The semantic aspects and psychological foundations of the symbols of river, mountain, and world are also explored.

Keywords. Poetry, symbol, contrast, poetics of colors, white, black, river, mountain, conflict.

Kirish. Zamonaviy o'zbek she'riyati badiiy san'atlarga boyligi bilan mukammallik kasb etadi. Zero, she'rlarda har bir so'z, rang yoki qandaydir ruhiy holat orqali badiiy topilmalar yaratiladi. Lirikada turli badiiylik unsurlari orqali, xususan, ramziy tasvir ifodalaridan keng foydalaniladi. Bu borada Azim Suyun she'riyati alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, shoir ijodida tabiat tasviri, insonlar hayotidagi turli vaziyatlar, ziddiyatlar kontrast tasvir orqali badiiy talqin qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. She'riyat uzoq tarixdan buyon adabiyotshunosligimizda keng o'rganib kelinadi. Adabiyotshunos B.Karimov e'tirof etadiki, "She'r – tuyg'u suvrati. Unda emosiya, ramz, obraz va badiiy san'at bo'lishi kerak; she'rda shoir subyekti, individual uslubi, o'z ovozi aks etishi lozim" [1, S.86]. Shunday ekan har bir yaratilgan she'rda, albatta, badiiy san'atlarning qaysidir elementi namoyon bo'ladi. She'r, asosan, oniy lahzalik bir ruhiy kechinma bo'lsa-da, unda obraz, ramz, badiiy san'atlar va shoir meni ishtirok etadi. Professor B.Sarimsoqov ta'biri bilan aytganda, "Real borliqdagi, inson ruhiyatidagi turli-tuman o'zgarishlar va kechinmalarni ijodkor o'z ongi, dunyoqarashi, estetik ideali, g'oyaviy maqsadi orqali sintez qilishi oqibatida badiiy obraz shakllanadi. Shu sababli ijodkor yaratgan har bir yangi obraz yangi bir xilqat, yangi bir kashfiyotdir. Bunday obrazlar inson ma'naviy dunyosini boyitadi, ruhini bardam qiladi. Bunday obrazni yaratish uchun, birinchidan, voqelik materialida obyektiv asos, oddiyroq, qilib aytganda, xamirturush kerak. Ikkinchidan, tanlangan

hayotiy materialni qanday tasvirlash yoki ifodalash ijodkorning xohishi va maqsadi, iqtidori va mahoratiga bog‘liq holda kechadi” [3, S.13].

Ko‘rinadiki, ijodkorlar o‘zlari istagan badiiy niyatni amalga oshirishda ba‘zan tabiat tasviri yoki lirik qahramon ruhiy holatigi monand ranglardan foydalanadilar. Zero, she‘riyatda kontrast tasvir muayyan badiiy funksiyasi bajargan holda asar kompozison yaxlitligini ta‘minlaydi. Ma‘lumki, kontrast tasvir – ikki qarama-qarshi predmet yoki insonning mavhum his-tuyg‘ularining bir-biriga zid qo‘yilishi asosida yuzaga keladigan hodisa.

Tahlil va natijalar. Kontrast – (fransuzcha *contraste* – keskin ziddiyat) adabiyotda inson xarakterini, narsa-hodisalarining sifati, xususiyatlarini bir-biridan keskin farq qildirib, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib tasvirlash usuli [3, S.103]. Kontrast tasvir – bu o‘quvchi kitobxonni diqqatini jamlaydigan, hayotning ziddiyatlardan iborat ekanligini ko‘rsatib beradigan badiiy vosita. Ilmiy manbalarda ta‘kidlanadiki, “Yozuvchi hayot manzaralarini, inson xakteri, uni o‘rab turgan ijtimoiy-maishiy va tabiiy muhitni tasvirlar ekan, o‘z badiiy maqsadiga erishish uchun narsa va hodisalardagi farqlarni bo‘rttirib ko‘rsatadi. Yaxshi-yomon, oq-qora singari qarama-qarshi narsa va tushunchalarni mana shu xil qabariq ifodasi kontrast tasvir usuli deb yuritiladi [3, S.103].

O‘zbekiston Xalq shoiri E.Vohidov ta‘biri bilan aytganda, Azim Suyun ham she‘riyat olamiga “Ohista iymanib ulug‘lar qoshida cho‘chinqirab emas, shaxdam, dadil, bamisoli to‘yxonaga kelgan o‘spirin kuyovlardek olatasir va suron bilan kirib keldi”. Darhaqiqat, Azim Suyun yaratgan she‘rlarda hayotiy va falsafiy mushohadalar uyg‘unligini uchratamiz. Xususan, Azim Suyunning “Oq va qora”, Usmon Azimning “Grafika” kabi she‘rlari rang simvolikasining mukammal badiiy ifodasini ko‘rish mumkin. Mazkur she‘rlarda shoir bir-birini takrorlamagan holda ranglarda inson umri mohiyati, shuningdek, ma‘naviy-axloqiy muammolarini aks ettiradi.

Shoirning “Oq va qora” she‘rini bir o‘qishda xuddiki, oddiy-jo‘n tasvirdek taassurot uyg‘otadi. Biroq she‘riyatda tahlil qilishga ehtiyoj seziladigan, kitobxonni o‘ylashga majbur qiladigan jihatlar ko‘p. Hayotidan oqlikni izlab chiqqan lirik qahramon qismatida har inson o‘z hayot yo‘llarini izlab ko‘radi. Ma‘lumki, qadimiy afsona va rivoyatlarda mashhur shaxslar taqdirida biron narsani topish uchun yo‘lga chiqqani va bu izlagan narsasi orqali o‘z taqdirini o‘zgartirgani va saodatga erishganiga ko‘plab misollar topiladi. Shoirning mazkur she‘ri ham safar motivi asosida deyish mumkin. Inson umri ham bu dunyoga qilingan bir safardir.

Oq buloqni izladim,

Qora buloq duch keldi.

Qora buloq suvidan ichdim, yoronlar.

Oq buloqqa yetguncha [5, S.11].

Ushbu she‘riy parchada she‘ri adabiy asarning birinchi elementi bo‘lgan badiiy fikr, tafakkurning aniq va ravonligi seziladi. She‘r hajman ixcham bo‘lib, shakli ifodada katta

ma'no mujassam. Lirik qahramon faqat oqni izlaydi-yu, faqat qoraga duch keladi. Nima uchun topdim emas, balki duch keldim? E'tirof etish kerakki, har qanday badiiy asar yaratilgan davri bilan qimmatli bo'lib, u yaratilgan davr asarda o'z aksini topadi. She'r yaratilgan 1980-yillar voqeligidagi jamiyatda adolatsizliklar, ilm ahliga zulmlar bilan bir qatorda unda inson taqdiri masalasini qayg'urish shoir badiiy idrokida namoyon bo'ladi.

Bilamizki, buloq qadimdan hayot – tiriklik ramzi hisoblangan. Buning dalili sifatida lirik qahramonning ichki olami bilan tashqi muhitning zidlanishi orqali kontrast tasvir yuzaga kelgan. Badiiy talqindagi lirik qahramon oq buloqni izlagan holda hayotida poklik va ruhiy tozalikni izlaydi. Ammo uni hayoti yo'lida doimo oq o'rniga qora, ya'ni sinov va hayotiy qiyinchiliklar qarshi oladi. Bu holat she'rning ikkinchi bandda yanada aniq ifodalangan.

Oq daryoni izladim,
Qora daryo duch keldi.
Qora daryo bag'rida cho'mildim, do'stlar,
Oq daryoga o'tguncha [5, S.11].

Dilrabo Mingboyeva o'zining "Tilsimlar tilsimi" kitobida e'tirof etadiki, "Daryo timsolining ikki ma'noliligi, suvning obod etish bilan bilan bir vaqtda vayron qilish xususiyatiga bog'liq. Daryo goh sokin, goh shoshqin o'tadigan inson hayoti va goh taraqqiyot, goh mahrumiyatdan iborat dunyo ramzi" [2, S.66]. Mazkur fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, lirik qahramon ulg'aygan sari uning hayotiy sinovi va qiyinchiliklari kattalashib borayotganga o'xshaydi. Buning isboti oldingi bandimizda lirik qahramon orzu va o'ylari xuddi buloq singari kichik va beg'ubor edi, keyingi bandda shoir darajalantirib, buloqni daryoga aylantiradi. Bu esa inson hayot oqimining davrlararo yiriklashib borishi anglashiladi. Qolaversa, D.Mingboyeva ta'kidlaydiki, Shomirza Turdimov tadqiqotlariga ko'ra, "Daryo ikki olam, makon va zamon, oshiq va ma'shuqlik, yigitlik va erlik, qizlik va ayollik, ko'ngillar, taqdirlar o'rtasidagi chegara ramziy ma'nosini ifodalaydi" [2, S.67]. Shu ma'noda, shoir she'rida buloq, daryo, tog' tasvirlari lirik qahramonning umr yo'li, mohiyati, qalb kechinmalari, ichki isyonlari kabi holatlar o'zining badiiy in'ikosini topadi. Adabiyotshunos M.Xolova izlanishlarida shunday xulosaga keladi: "Yer yuzida hayot paydo bo'libdiki, tundan so'ng tong otishi, kunduz qorong'u kechaga ulanishi bilan abadiyat takrorlanaveradi. Tabiatda hech bir narsa sof holda uchramaydi – tun bag'ridan yorug'lik, yorug'lik og'ushidan tunning qoramtir soyalari sizib chiqqanidek. Yorug'lik tun bilan qiyoslangandagina o'zining ro'shnolik mohiyatini to'laroq yuzaga chiqaraveradi. Ehtimol, tun, qorong'ulik bo'lmaganda kun, yorug'lik bu qadar qiymatga ega bo'lmasdi. Tabiatdagi bunday ziddiyatli holatlarini uyg'unlashtirib ketish, davom ettirish mumkin: ranglar, ta'mlar, sifatlararo shunday qarama-qarshilik va bir paytning o'zida yagona birlik chindan ham kishini falsafiy o'y-xayollarga soladigan tushunchalardir" [6, S.22]. Shunday ekan, Azim Suyun she'rlarida

rang (oq va qora) inson orzu istagi, turmush murakkabliklari, umr davrlari, hayotiy ziddiyatlar mohiyati ma'nosida inkishof etiladi.

Oq tog'larni izladim,
Qora tog'lar duch keldi.
Qora tog'lar quchog'ni kezdin, yoronlar,
Oq tog'larga ketguncha [5, S.11].

E'tibor bersak, hayot yo'lida davom etayotgan lirik qahramon maqsadlari buyuklashib, hayotning asl mohiyatini, mavjud qoidalarini anglab yetadi. Bilamizki, tog' tasviri ko'plab asarlarda ramziy ma'nolarda keltirib o'tiladi. Zero, "Tog' – ma'naviy yuksalish g'oyasining ifodasi. U zohidlar va donishmandlar yashaydigan joydir. Tog' – ota-ona; suyanchiq, ota yurt, tayanch, orzudagi muhabbat singari ramziy ma'noga ega. Tog' timsolining ushbu ma'nolari tog'ning: muqaddas makon, tangrining uyi, ajdodlar ruhi qo'nim topadigan joy, jomiy eranlar – chiltonlar makoni sifatida talqin etiluvchi mifologik dunyoqarashlarga bog'lanadi" [2, S.66].

Har bir inson dunyoga kelarkan, avvalo, olamni o'rganish istagida bo'ladi va shunga harakat qiladi. Tog'ning ota-ona, ona yurt, muhabbat, suyanchiq ma'nolaridan kelib chiqib shuni aytish joizki, qahramonimiz ham o'z orzudagi tayanch tog'ining quchog'ida kezmoqchi, umrining oxirida u bilan hamnafas birga bo'lmoqchi. Ijodkor hayolidagi tog' xoh muhabbat, xoh Vatan, xoh ota-onasi, qay biri bo'lishi qat'iy nazar birga bo'lishni istaydi. Biroq hayotimizda ulkan qora tog'lar, ya'ni sinov va mashaqqatlar bunga yo'l qo'ymaydi. Bu masalaning bir tomoni, bu o'rinda e'tirof etish lozimki, bu o'rinda tog' – mazmunan orzu-istak, yuksaklikni bildirsa, shaklan insonning umr yakuni, ya'ni qabr mohiyati sifatida ham anglash mumkin. Ayni shu mazmunda qaralsa, lirik qahramonning umr oxirigacha faqat ro'shnolik orzusida, haqiqat izlab yashab o'tgani idrok etiladi.

Oq va qora dunyoni
Chappar urib aylangum,
Oq shomlar tugab, do'stlar,
Qora shomlar... [5, S.11].

Oxirgi badda shoir "oq va qora" dunyo deb tariflar ekan, qora dunyo bu – foniy, o'tkinchi, biz hozir yashab turgan olamga mengzasa, oq dunyo bu – biz qiyomat va oxiratdagi darajamiz beriladigan Jannatga qiyoslaydi. Shuning uchun ham lirik qahramon ruhiy holati oldingi bandlardagidek, o'tgan zamon shaklida qo'llanilmay, balki kelasi zamonda aks ettiriladi. Ya'ni "qora dunyoning" barcha mashaqqatlaridan chappar urib aylanganiga urg'u berib, bu dunyo tarozisida qanchalik tosh bosishi va Yaratganning marhamatidan umidvor ekanligini o'zining falsafiy asosini topgan. She'r "Oq shomlar tugab, do'stlar, Qora shomlar..." deya yakunlanishi, ya'ni yo'lning davomi noma'lumligi, uni aniq izga solish inson irodasiga bog'liqligi bilan izohlanadi. Ko'rinadiki, "She'r – monologik ong va dialogik munosabat hosilasi sanaladi. Unda o'z-o'ziga nisbatan taftish, tavsif, tahlil va muhokama in'ikos topadi. Ong va sezim munosabatini shakllantiradigan

lirik ibtidoda hissiy kechinma yetakchi omilga aylanadi. Shu ma'noda, nutqiy muloqot shakllari badiiy maqsad va talab o'ziga xosligi namoyishida muayyan vazifaviy ahamiyat kasb etadi. Harakatdagi birinchi shaxs nutqida aslida hayotiy-estetik mohiyat psixologiyasi paradoksal aloqa hosil qiladi. Rivoya texnikasi tezkorligi-o'zgaruvchanligi bayon mantiqiy izchilligi – tasvir yig'iqqligini belgilaydi" [6, S.34-35]. Shu ma'noda, kitobxon shoir va adabiy matn bilan o'zaro muloqotga kirisha olsagina, "Oq va qora" she'rini mazmun mohiyatini tushunib yetadi. Shu orqali o'zi hayoti asl mohiyatini davr va insoniy ziddiyatlar mazmunini anglab yetadi. Shu sababdan shoir she'rga oxirgi nuqtani qo'ymaydi, chunki har bir inson o'z hayotining nuqtasini o'zi belgilashiga va hayot bir maromda davom etishiga ishora sifatida qabul qilish mumkin.

Xulosa. Adabiyotda kontrast-qarshilantirish tasviri ijodkor badiiy niyatini anglatish vositalaridan biri bo'lib undan qay darajada foydalanish muallif badiiy mahorati bog'liq kechadi. Xususan, Alisher Navoiyning "Xamsa"sining to'rtinchi dostoni "Saba'i sayyor" dostonida ham ranglar juda katta falsafiy ma'no ifodalashga xizmat qilgan. Unada Bahromning ichki iztiroblaridan, qalb og'riqlaridan xalos etish uchun unga yetti xil rangda yetti qasr quriladi. E'tiborimizni tortgan jihat shuki, voqealar qora rangli qasrida boshlanib, oq rangli qasrda yakun topadi. Navoiy bu bilan har bir inson Allohning rizoliga erishmoq uchun hayotdagi barcha qora ya'ni qiyinchilik va mashaqqatlarni yengib o'tish kerak. Shu ma'noda, Azim Suyun she'rda ham lirik qahramon maqsadlari ma'noviy jihatdan yuqori pog'onalarga chiqib boradi. Shoir kontrast tasvir orqali insonga berilgan umr mohiyatini badiiy tadqiq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
2. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Тошкент: Адабиёт, 2022.
3. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004.
4. Салаев Ф., Қурбонниёзов. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. — Тошкент: Янги аср авлод, 2010.
5. Суюнов А. Мен – Ерликман (шеърлар ва дoston). – Тошкент: Адабиёт, 2020.
6. Matyakupov S. Hozirgi o'zbek she'riyatida dialog va uning funksiyasi. Filol. fan. dok(DSc). diss... avtoref. – Toshkent, 2024.– B. 34-35.
7. Xalova M. Hozirgi o'zbek ayollar she'riyatida qalb tasviri va talqini (H.Xudoyberdiyeva, H.Ahmedova, Z.Mirzo ijodi misolida). Filol. fan. dok(DSc). diss... avtoref. – Samarqand, 2024.– B. 22.